



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNI BAHOLASHNING MUQOBIL SHAKLLARI

Rajabova Noila Maxmadmuso qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni baholashning muqobil shakllari keng va chuqur yoritilgan. An'anaviy baholash usullarining kamchiliklari tahlil qilinib, muqobil baholashning asosiy tamoyillari, shakllari va ularning afzalliklari ko'rsatildi. Portfolio, loyiha asosida baholash, og'zaki baholash, o'z-o'zini va tengdoshlarni baholash hamda rivojlantiruvchi baholash kabi muqobil shakllarning boshlang'ich ta'lism jarayonidagi ahamiyati va amaliyatga tatbiq etish yo'llari muhokama qilindi. Maqola o'quvchilarining individual qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy faoliyatini rag'batlantirish va baholash jarayonini yanada samarali tashkil etish masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lism, baholash, muqobil baholash, portfolio, loyiha asosida baholash, og'zaki baholash, o'z-o'zini baholash, tengdoshlarni baholash, rivojlantiruvchi baholash, o'quvchilarini baholash usullari.

ALTERNATIVE ASSESSMENT METHODS FOR PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Rajabova Noila Maxmadmuso qizi

University of Information Technologies and Management

Student of Primary Education Department

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of alternative assessment methods for primary school students. It examines the limitations of traditional assessment approaches and presents the key principles, forms, and advantages of alternative assessments. Methods such as portfolio assessment, project-based evaluation, oral assessment, self-assessment, peer assessment, and formative assessment are discussed in terms of their significance and application in the primary education process. The article focuses on developing students' individual abilities, encouraging creativity, and organizing the assessment process more effectively.

Keywords: primary education, assessment, alternative assessment, portfolio, project-based assessment, oral assessment, self-assessment, peer assessment, formative assessment, student evaluation methods.





Introduction

Boshlang'ich ta'lif bosqichida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash ta'lif jarayonining muhim qismi hisoblanadi. An'anaviy baholash shakllari (testlar, yozma imtihonlar) o'quvchilarni baholashda tez va oson natija berishi bilan birga, ba'zan ularning imkoniyatlari, ijodiy qobiliyatları hamda individual rivojlanish darajasini to'liq aks ettirmaydi. Shu sababli, muqobil baholash shakllari ishlab chiqilib, qo'llanilishi zarurati paydo bo'lgan.

Muqobil baholash o'quv jarayonini yanada samaraliroq, qiziqarli va rivojlantiruvchi holga keltirish, shuningdek, har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlari va qobiliyatlarini inobatga olish imkonini beradi.

An'anaviy baholashning kamchiliklari haqida aytadiigan bo'lsak, test va yozma ishlar faqatgina bilimning ma'lum qismiga e'tibor qaratadi. O'quvchining ijodkorligi, amaliy ko'nikmalari va munosabatlari yetarlicha baholanmaydi.

Stress va bosimni oshirishi mumkin, ayniqsa kichik yoshdagi o'quvchilarda.

O'quvchining qobiliyatları va rivojlanish jarayonini to'liq aks ettirmaydi.

Main part.

Muqobil baholash tushunchasi va asosiy tamoyillari bu:

Muqobil baholash (alternativ baholash) — bu o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning an'anaviy usullaridan farq qiluvchi, yanada keng qamrovli va individual xususiyatlarni hisobga oluvchi baholash shakli. O'quvchining shaxsiy yutuqlarini inobatga olish. Baholash jarayonida ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarni ko'rsatishga imkon berish. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida muloqot asosida o'tkazilishi.

Boshlang'ich sinflarda muqobil baholash shakllari. Portfolio baholash.

Portfolio — o'quvchining ishlar to'plami bo'lib, u o'quvchining o'qish jarayonidagi yutuqlari, ijodiy ishlari, loyihalari va o'z fikrlarini ifodalash usollarini o'z ichiga oladi.

Afzalliklari shundan iboratki, o'quvchining individual o'sishini ko'rsatadi va

o'quvchining mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatini baholaydi. Ota-oná va o'qituvchi uchun o'quv jarayonini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Loyihalar asosida baholash. O'quvchilarga ma'lum bir mavzu yoki masala bo'yicha loyiha bajarish topshiriladi. Loyihaning natijasi hamda bajarish jarayoni baholanadi. Afzalliklari, Amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Jamoaviy ishlash va mas'uliyatni oshiradi. O'quvchining mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi.

Muloqot va og'zaki baholash, bunda o'qituvchi o'quvchi bilan suhbat o'tkazib, uning bilim va tushunishini aniqlaydi. Yutuqlar shundan iboratki, o'quvchining fikrini erkin ifoda etish imkonini beradi. Shaxsiy yondashuvni ta'minlaydi. Tezkor va moslashuvchan baholash usuli hisoblanadi.

O'z-o'zini baholash va tengdoshlarini baholash. O'quvchilarga o'z ishlarini va sinfdoshlarini baholash imkoniyati beriladi. Afzalliklari, mas'uliyat hissini oshiradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va o'quvchilarda baholash jarayoniga faol ishtirok etish hissini shakllantiradi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Muqobil baholashning afzalliklari va imkoniyatlari:

- O‘quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.
- Baholash jarayonini qiziqarli va ko‘ngildagidek qiladi.
- O‘quvchilarda o‘z-o‘zini anglash va o‘z ustida ishslash madaniyatini shakllantiradi.
- Ota-onalar bilan hamkorlikda baholash jarayonlarini muhokama qilish.
- Kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun moslashuvchan va stresssiz baholash usullarini ta’minlaydi.

Muqobil baholashni amaliyotga tatbiq etish yo‘llari. O‘quvchilarni muqobil baholash usullari bo‘yicha malaka oshirish. Dars jarayonida muqobil baholash shakllarini rejalashtirish va muntazam qo‘llash. Ota-onalar bilan hamkorlikda baholash jarayonlarini muhokama qilish. Rivojlantiruvchi baholash natijalariga ko‘ra o‘quv jarayonini moslashtirish va texnologiyalardan foydalanib baholashni yanada samarali qilish (masalan, elektron portfolio).

Xorijiy davlatlarda boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni baholashning muqobil shakllari bo‘yicha ko‘plab ilg‘or tajribalar va tadqiqotlar mavjud.

AQShda rivojlantiruvchi baholash (formative assessment) keng qo‘llaniladi va ta’lim sifatini yaxshilashda asosiy vosita hisoblanadi (Black & Wiliam, 1998). Portfolio va loyiha asosida baholash ko‘plab maktablarda majburiy qoidaga aylangan. Masalan, “Common Core State Standards” doirasida o‘quvchilarning ko‘nikmalari faqat bilim emas, balki amaliy va ijodiy yondashuvlar orqali baholanadi. O‘z-o‘zini baholash va tengdoshlarni baholash faol ravishda ilgari suriladi.

Yevropa davlatlari (Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Germaniya) da esa Finlyandiya ta’lim tizimi dunyoda eng ilg‘orlaridan biri sifatida tanilgan va unda baholash ko‘proq individual yondashuvga asoslangan. Finlyandiyada o‘quvchilarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishini baholash uchun muqobil usullar qo‘llaniladi. Buyuk Britaniyada “Assessment for Learning” (AfL) konsepsiysi keng tarqalgan bo‘lib, bu baholash jarayonini o‘quv jarayonining bir qismiga aylantiradi. Germaniyada loyihalar va portfoliolardan foydalanish boshlang‘ich ta’limda kengaymoqda.

Yaponiya boshlang‘ich ta’limda baholashni o‘quv jarayonining doimiy qismi sifatida ko‘radi. Muqobil baholash shakllari, ayniqsa og‘zaki baholash va o‘z-o‘zini baholash, o‘quvchilarni o‘z ishlariga yanada mas’uliyat bilan yondashishga o‘rgatadi. Shuningdek, o‘quvchilar va ota-onalar bilan doimiy aloqa muhim hisoblanadi.

Avstraliyada muqobil baholash usullari rivojlanmoqda, ayniqsa raqamlı texnologiyalar yordamida portfolio va loyiha baholash kengaymoqda. Ta’lim standartlari doirasida o‘quvchilarning kommunikativ va ijodiy ko‘nikmalarini baholashga katta e’tibor beriladi.

Conclusion

Xorijiy davlatlarda boshlang‘ich sinflarda muqobil baholash shakllarining keng qo‘llanishi ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni rag‘batlantirish va ularning individual o‘sishini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Bu davlatlarda baholash ko‘proq rivojlantiruvchi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



va o‘quv jarayoniga integratsiyalashgan bo‘lib, o‘quvchining har tomonlama rivojlanishini ko‘zlaydi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni baholash jarayonida an’anaviy test va imtihon usullarining cheklovlarini mavjudligi muqobil baholash shakllarining dolzarbligini oshirmoqda. Portfolio, loyiha asosida baholash, og‘zaki baholash, o‘z-o‘zini va tengdoshlarni baholash kabi usullar o‘quvchilarning individual xususiyatlari, ijodkorligi va amaliy ko‘nikmalarini to‘liqroq aks ettirish imkonini beradi. Xorijiy davlatlarda muqobil baholash shakllari keng joriy etilgan bo‘lib, ular ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning rivojlanishini samarali qo‘llab-quvvatlashda katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, boshlang‘ich ta’lim muassasalarida muqobil baholash usullarini tatbiq etish o‘quv jarayonini yanada rivojlantirish, o‘quvchilarning shaxsiy yutuqlarini ta’kidlash va ta’lim sifatini oshirish uchun zarurdir.

Adabiyotlar

1. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and classroom learning. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 5(1), 7–74.
2. Birenbaum, M. (1996). Assessment 2000: Towards a pluralistic approach to assessment. *Assessment in Education*, 3(3), 239-253.
3. Falchikov, N. (2005). Improving assessment through student involvement: Practical solutions for aiding learning in higher and further education. Routledge.
4. Paulson, F. L., Paulson, P. R., & Meyer, C. A. (1991). What makes a portfolio a portfolio? *Educational Leadership*, 48(5), 60-63.
5. Thomas, J. W. (2000). A review of research on project-based learning. Autodesk Foundation.
6. Bell, S. (2010). Project-based learning for the 21st century: Skills for the future. *The Clearing House*, 83(2), 39-43.
7. Assessment Reform Group. (2002). *Assessment for Learning: 10 Principles*. Cambridge.
8. Black, P., Harrison, C., Lee, C., Marshall, B., & Wiliam, D. (2004). Working inside the black box: Assessment for learning in the classroom. *Phi Delta Kappan*, 86(1), 8-21.
9. Darling-Hammond, L., & Adamson, F. (2014). *Beyond the Bubble Test: How Performance Assessments Support 21st Century Learning*. Jossey-Bass.

